

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№11

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 414 sahifa.
2025-yil, noyabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

YASHIL TRANSPORT SIYOSATINING BARQAROR RIVOJLANISH VA TARMOQLARARO INTEGRATSIYADAGI O'RNI	21
Rahmonov Rasul Ne'matovich	
BANK AKTIVLARI VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	34
Safarov Sanjar Ravshan o'g'li	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI.....	38
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
HUDUDIIY XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MODELI	43
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	50
A.A. Ismailov	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING MEXANIZMINI SAMARALI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIYAVIY MANBALARNI SHAKLLANTIRISHNI YO'NALISHLARI	56
Mansurov Mansur Alisherovich	
ANTIKRIZISLI BOSHQARUV TIZIMLARIDA RANGLI SIGNAL MEXANIZMLARINING FUNKSIYALARI.....	61
Aliqulov Aziz Haydarjonovich	
XODIMLARNI MOTIVATSIYALASHNING XALQARO MODELLARINI O'ZBEKISTON KORXONALARIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	66
Yormamatov Qodirjon Juraqulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT OMILLARI VA ULARNING QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	71
Yaxshiyev Shahzod Sherari o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI BO'YICHA XORIJ TAJRIBALARI	78
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR TAJRIBASI	84
Aripov Abdulaziz Sakijonovich	
YASHIL ENERGETIKA RIVOJLANISHINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	89
Bobokulova Muhabbat Muhammadiyeva	
ELEKTRON TO'LOVLAR VA POS TIZIMLARI — KICHIK BIZNESDA SAMARASI VA XAVFLARI	93
To'liqinov Dilshodxo'ja Olim o'g'li	
MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	98
Yusubov In'omjon Ikram o'g'li	
SOLIQ SIYOSATINI RAQAMLI BOSHQARISH ORQALI BUDJET DAROMADLARINI BARQARORLASHTIRISH STRATEGIYASI.....	103
Xodjimatomov Xamidullo Mamirjonovich	
OZIQ-OVQAT TOVARLARI B2B BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	108
Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi	
FARMASEVTIKA SANOATIDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH	113
Yaqubov Timurbek G'anibekovich	
SHAXSNI OVOZI ASOSIDA IDENTIFIKATSIYALASH VA AUTENTIFIKATSIYALASH ALGORITMLARI	123
Ozoda Sabirova Shermamaxamatovna	



YASHIL IQTISODIYOT — BARQAROR RIVOJLANISH GENERATORI	129
Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna	
CHET EL MEHMONXONA TARMOQLARINING BRENDING STRATEGIYALARINI O'RGANISH	133
Ergashev Oybek Mamarasul o'g'li	
MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING MOLIVAVIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIATLARINI TAKOMILLASHTIRISH	144
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
TRANSPORT TIZIMI SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION SALOHİYATINI BAHOLASH YO'NALISHLARI	152
Ismailov Akmal Maxsudovich, Abilqosimova Shaxlo Sodiқ qizi	
MEHMONXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XODIMLARINING O'RNI VA AHAMIYATI	158
Abduxamidov Sarvar Adxamovich, Normurodov Tal'at Normurod o'g'li	
KORXONALARDA HR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	163
Aminova Shaxnoza Aziz qizi	
JAHON IQTISODIYOTIDA OZIқ-OVQAT XAFSIZLIK RO'LI	168
Abdusamatov Barkamol Rustamjon o'g'li	
ТУРИСТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ КАРАКАЛПАКСТАНА И СУЩЕСТВУЮЩАЯ ИНФРАСТРУКТУРА	174
Хошимова Камилла Навфал қизи	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARI: REKREATIONS TURIZM SOHASIDA QO'LLASH TAJRIBASI VA ISTIQBOLLARI	184
Najmitdinov G'ayratbek Sharifovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VIRTUAL TA'LIM PLATFORMALARI: TEXNIK VA PEDAGOGIK TALABLAR, TIZIMLI TAHLIL VA IQTISODIY JIATLAR	189
Turayeva Adiba Ikramovna	
ICHKI AUDIT TIZIMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	193
Nuridinova Barchinoy Xusniddin qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTIDA SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	199
Xaitbaev Jasurbek Otaxanovich	
MINTAQANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	204
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi	
SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	210
Jobborov Anvar Egamberdiyevich	
ISLOMIY MOLIVALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELEKTNING DOLZARBLIGI	217
Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li	
JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKINI SOLIQQA TORTISH MASALALARI	222
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN	225
Abdukhalikova Komila Abdukhalikovna	
BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH	229
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI: TAHLIL VA TAKLIFLAR	233
Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li	
WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF STATE FINANCIAL REGULATION MECHANISMS IN ENSURING THE CAPITALIZATION OF INSURANCE ORGANIZATIONS	238
Abdullaev Erkinjon Azamovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA YASHIL MOLIVALASHTIRISHNING NAZARIY JIATLARI	245
Xalikov S. X.	



QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORIDA KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	245
Xudayberganov Jasur Baxodirovich	
WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF STATE FINANCIAL REGULATION MECHANISMS IN ENSURING THE CAPITALIZATION OF INSURANCE ORGANIZATIONS	251
Abdullaev Erkinjon Azamovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISH JARAYONINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	257
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	261
Jobborov Anvar Egamberdiyevich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI RESURSLARNI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH.....	268
Avulchayeva Feruza Jurakuziyevna	
BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	272
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
ZAMONAVIY ISH JOYLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLARNING ROLI	276
Tulyaganova Aziza	
ISLOMIY MOLIYALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNING DOLZARBLIGI.....	281
Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li	
TURIZM MARKETINGINING NAZARIY ASOSLARI, ZAMONAVIY YO'NALISHLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	286
Xamidov Otabek Bakidjanovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TIZIMINI STATISTIK BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI	290
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
ЭКОЛОГАМ ПОЧЕТ И УВАЖЕНИЕ	298
Максудова Шахиста	
DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNING MOHIYATI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENTSIYALARI	304
Jo'raev Farruxbek Muxiddin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIYALASHTIRISH XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	307
Inomjonov Islomjon Iloxomjon o'g'li	
ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN	311
Abdukhalkova Komila Abdukhalkovna	
МОБИЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ.....	315
Хурамова Фарангиз Учкун кизи	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ НАЛОГОВ И АКЦИЗНАЯ РЕФОРМА УЗБЕКИСТАНА В ВТО	319
Дамир Рустамович Абдулов	
BANK TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR SHAROITIDA LIKVIDLILIK RISKINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	324
Alimov Baxtiyor Murodovich	
BANK AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	335
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH MASALALARI.....	343
Abdimuminova Saodat Taxirjonovna	
TO'QIMACHILIK SANOAT MAXSULOTLARI EKSPORT FAOLIYATI TAHLILI VA BRENDIDA LIDERLIK TUSHINCHALARI	352
Abdulazizova Xushnoza Nayabovna	



ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МОДЕЛИ УПРАВЛЕНИЯ ОТХОДАМИ НА ОСНОВЕ ОПЫТА РАЗВИТЫХ СТРАН И ВОЗМОЖНОСТИ ИХ АДАПТАЦИИ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	357
Д. Мейлиева	
O‘ZBEKISTON AUDITORLIK TIZIMIDA KASBDOSHLAR TOMONIDAN BAHOLASH (PEER REVIEW) TIZIMINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	361
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И БОЛЬШИЕ ДАННЫЕ (BIG DATA) В УПРАВЛЕНЧЕСКИХ РЕШЕНИЯХ.....	366
Шарипов Бахтиёр Михлибаевич	
O‘ZBEKISTONDA SUVGA BO‘LGAN TALABNI VAQTLI QATORLAR ORQALI TAHLIL QILISH	375
Sarvar Mamasoliyev	
BOSHQARUV VA NAZORAT MAQSADLARIDA XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETISH	383
Isomuxamedov Akbarjon Boxodir o‘g‘li	
MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINI TA‘MINLASHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI.....	389
Salomat NOROVA	
O‘ZBEKISTON TURIZM BREND BOZORINING HOZIRGI HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	394
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODOLOGIYASI.....	404
Qodirov Baxodirjon Tursunovich	
O‘ZBEKISTON SOLIQ TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISHDA YAGONA INTERAKTIV DAVLAT XIZMATLARI PORTALINING O‘RNI VA AHAMIYATI	408
Dehqonov G‘ayratjon Raximovich	



O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISHDA YAGONA INTERAKTIV DAVLAT XIZMATLARI PORTALINING O'RNI VA AHAMIYATI

Dehqonov G'ayratjon Raximovich

Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida soliq tizimini modernizatsiya qilish jarayonida "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal"ning (my.gov.uz) o'rni va ahamiyati tahlil qilingan bo'lib, maqolada portal orqali soliqqa oid xizmatlarni raqamlashtirish natijasida soliq to'lovchilar uchun yaratilayotgan qulayliklar, davlat xizmatlarining shaffofligi va samaradorligini oshirish yo'nalishlari yoritilgan. Shuningdek, portalning soliq organlari faoliyatiga ta'siri, ma'lumotlar almashinuvi va ma'muriy jarayonlarni avtomatlashtirishdagi roli ilmiy asosda ko'rib chiqilgan. Tadqiqot davomida mavjud muammolar, xususan texnik, huquqiy va tashkiliy to'siqlar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, soliq tizimi, yagona interaktiv portal, elektron hukumat, soliq ma'murchiligi, axborot almashinuvi, davlat xizmatlari, shaffoflik, modernizatsiya, samaradorlik.

Abstract. This article analyzes the role and importance of the "Unified Portal of Interactive Public Services" (my.gov.uz) in the modernization of the tax system of the Republic of Uzbekistan. The article highlights the benefits created for taxpayers by digitalizing tax services through the portal, as well as ways to improve the transparency and efficiency of government services. The portal's impact on tax authorities' operations, its role in information exchange, and the automation of administrative processes are also examined using scientific research. The study analyzed existing problems, including technical, legal, and organizational barriers, and developed proposals and recommendations for addressing them.

Key words: Digital transformation, tax system, single interactive portal, e-government, tax administration, information exchange, public services, transparency, modernization, efficiency.

Аннотация. В данной статье анализируются роль и значение «Единого портала интерактивных государственных услуг» (my.gov.uz) в модернизации налоговой системы Республики Узбекистан. В статье освещаются удобства, создаваемые для налогоплательщиков в результате цифровизации налоговых услуг посредством портала, а также пути повышения прозрачности и эффективности государственных услуг. Также на научной основе рассматривается влияние портала на деятельность налоговых органов, его роль в информационном обмене и автоматизации административных процессов. В ходе исследования проанализированы существующие проблемы, в частности технические, правовые и организационные барьеры, и разработаны предложения и рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: цифровая трансформация, налоговая система, единый интерактивный портал, электронное правительство, налоговое администрирование, обмен информацией, государственные услуги, прозрачность, модернизация, эффективность.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida raqamli transformatsiya jarayonlari davlat boshqaruvining barcha sohalarini qamrab olmoqda. Xususan, soliq tizimini raqamlashtirish va uni yagona axborot makoniga integratsiya qilish davlat xizmatlarini soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish va soliqqa oid ma'lumotlarning shaffofligini oshirishda muhim o'rin tutmoqda. Shu nuqtayi nazardan, "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal" (my.gov.uz) orqali soliq xizmatlari va raqamli servislarning joriy etilishi soliq tizimini modernizatsiya qilish yo'lidagi muhim bosqich hisoblanadi. Mazkur portal nafaqat soliq to'lovchilarga qulaylik yaratish, balki davlat organlari o'rtasida axborot almashuvini avtomatlashtirish, ma'muriy jarayonlarni



optimallashtirish va soliq intizomini kuchaytirish imkonini bermogda. Shu bilan birga, portal orqali xizmatlarning elektron shaklga o'tishi soliq organlarining samaradorligini oshiradi hamda inson omiliga bog'liq xatoliklar va korrupsion xavflarni kamaytiradi.

Jahon banki va OECD ma'lumotlariga ko'ra, elektron hukumat (e-Government) mexanizmlarini joriy etish davlat xizmatlarini ko'rsatish tezligi va sifatini 30–50 foizga oshirishga xizmat qilgan. O'zbekiston ham bu borada izchil islohotlarni amalga oshirib, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish va davlat organlari o'rtasida axborot almashinuvini soddalashtirishni maqsad qilgan. Mazkur jarayonning muhim bo'g'ini sifatida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini (my.gov.uz) orqali davlat xizmatlarining, xususan, soliq sohasidagi elektron xizmatlarning takomillashuvi O'zbekiston soliq tizimi samaradorligining yangi bosqichini boshlab berdi.

Shunday qilib, ushbu maqolada Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining O'zbekiston soliq tizimini modernizatsiya qilishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida portalning amaliy natijalari, joriy etish bosqichida uchrayotgan muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar keltiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining raqamlashtirilishi va elektron xizmatlar joriy etilishi bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur sohada o'tkazilgan ilmiy izlanishlarda soliq boshqaruvini modernizatsiya qilishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni, elektron hukumat tizimining afzalliklari hamda davlat xizmatlarining shaffofligini ta'minlash masalalari keng yoritilgan.

N.Ziyayev "Soliq siyosati va raqamli texnologiyalar: Yangi imkoniyatlar" asarida soliq ma'muriyatini raqamlashtirish jarayonlarini tizimli o'rganib, raqamli texnologiyalarni joriy etish soliq yig'irlarining shaffofligini oshirishi va yashirin iqtisodiyot hajmini kamaytirishini asoslab bergan. Shuningdek, muallif elektron xizmatlar orqali davlat organlari o'rtasidagi axborot almashinuvining yangi mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi.

B.Xudoyberdiyev "Soliqqa tortish tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish: O'zbekiston tajribasi" nomli ilmiy ishida soliq xizmatlarining avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini o'rganib, "E-Soliq" va "Soliq-24" kabi platformalarning afzalliklarini tahlil qilgan. Uning fikricha, bu tizimlar soliq to'lovchilarning vaqt va mablag'ini tejaydi, byurokratik to'siqlarni kamaytiradi hamda nazorat mexanizmlarining samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, xorijiy adabiyotlarda ham elektron hukumat tizimining soliq boshqaruvidagi o'rni keng o'rganilgan. OECD hisobotida raqamli texnologiyalarni joriy etish soliq yig'ish xarajatlarini o'rtacha 20–25 foizga qisqartirishi, ma'muriy yukni kamaytirishi hamda soliqqa oid ma'lumotlarning aniqligini oshirishini qayd etadi. Jahon bankining "E-Government for Tax Efficiency" hisobotida esa elektron hukumat tizimi orqali soliq ma'muriyatida inson omilining kamayishi soliq intizomini kuchaytirishi ta'kidlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil hamda induktiv-deduktiv usullardan foydalanilgan. Yondashuvlarning tanlanishi tadqiqotning maqsadi O'zbekiston soliq tizimini modernizatsiya qilishda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining o'rni va ahamiyatini aniqlash bilan izohlanadi.

Birinchidan, tizimli tahlil usuli orqali portalning davlat boshqaruvi, soliq ma'muriyati va soliq to'lovchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlardagi funksional roli o'rganildi. Portalning axborot oqimlari, xizmat turlari va foydalanuvchi interfeysi tizimli nuqtayi nazardan tahlil qilindi.

Ikkinchidan, qiyosiy tahlil usuli yordamida O'zbekiston tajribasi Estoniya, Janubiy Koreya va Daniya kabi ilg'or davlatlar tajribasi bilan solishtirildi. Bu orqali elektron hukumat tizimining soliq boshqaruvidagi eng yaxshi amaliyotlari aniqlanib, O'zbekistonda ularni qo'llash imkoniyatlari baholandi.

Uchinchidan, statistik va empirik ma'lumotlar tahlili orqali Davlat soliq qo'mitasi, BMT, OECD va Jahon banki hisobotlari asosida soliq xizmatlarining elektron shaklga o'tish darajasi, foydalanuvchilar soni, portal orqali amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi va samaradorlik ko'rsatkichlari o'rganildi.

To'rtinchidan, induktiv-deduktiv yondashuv orqali umumiy nazariy mulohazalar asosida xulosalar chiqarildi. Avval global tendensiyalar tahlil qilinib, so'ng O'zbekiston sharoitida portalning roli, ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri va rivojlanish istiqbollari aniqlab berildi.

Bundan tashqari, tadqiqot davomida normativ-huquqiy tahlil usuli qo'llanilib, O'zbekiston Respublikasining PF-6079 va PF-158-son Farmonlari, shuningdek, Davlat soliq qo'mitasi va my.gov.uz portalini faoliyatiga doir rasmiy hujjatlar tahlil qilindi.

Mazkur metodologik yondashuvlar yordamida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining soliq tizimini modernizatsiya qilishdagi real ta'sir omillari aniqlanib, ularning samaradorlik darajasi ilmiy asosda baholandi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Elektron hukumat – bu davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) vositasida xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan tashkiliy-huquqiy va texnik tizimdir. Elektron hukumatni turlicha ta'riflash mumkin. Keng ma'noda, elektron hukumatning vazifalari va xizmatlar ko'rsatishi hamda faoliyatini rivojlantirish uchun AKTni qo'llash ko'rinishida belgilanishi mumkin.

Shuningdek, elektron hukumatni davlat organlari ko'rsatayotgan xizmatlarning, ochiqqligi, shaffofligi, shuningdek, samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida raqamli texnologiyalardan foydalanish usuli deb tushunish ham o'rinlidir. Bundan tashqari, elektron hukumatni AKTni qo'llagan holda davlat organlarining yanada samarali faoliyat ko'rsatishi hamda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga sifatli xizmatlar ko'rsatish tizimi deb ta'riflash mumkin.

O'zbekiston BMTning 2024-yilgi E-Government Development Index (EGDI) reytingida 6 pog'ona yuqorilab, 193 davlat orasida 63-o'rinni egallagan bo'lib, bu mamlakatning elektron boshqaruv sohasida yuksalib borayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, elektron hukumatning rivojlanish indeksi 0,79 ni, past va o'rta daromadli mamlakatlar orasidagi ko'rsatkichi esa 0,76 ni tashkil etdi¹. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son Farmonining 57-maqsadida² BMTning Elektron hukumat reytingida 2030-yilgacha top-30 talikka kirishga erishish maqsad qilingan.

O'zbekistonning elektron hukumat reytingida ijobiy natijalarga erishishi mamlakatimizda "Raqamli O'zbekiston – 2030" davlat dasturi³ doirasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilgani bilan chambarchas bog'liq.

Mazkur dastur doirasida asosan aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatishda inson qadri tamoyiliga asoslanish sari katta qadam tashlandi. Xususan, fuqarolar yangi xizmatlar bilan boyib borayotgan my.gov.uz – Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali hayotiy vaziyatlarda ko'p duch kelinadigan 780 dan ziyod elektron davlat xizmatlaridan onlayn foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Yagona interaktiv portalning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

1. Davlat xizmatlarining shaffofligini ta'minlash.
2. Ortiqcha hujjat aylanishini kamaytirish.
3. Soliq to'lovchilar uchun qulay, tezkor va onlayn xizmatlar yaratish.

O'zbekiston soliq tizimida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida 30 ga yaqin raqamli xizmat va servislarni joriy etilgan bo'lib, Bunday xizmatlar soliqqa oid operatsiyalarni avtomatlashtirib, inson omilini kamaytiradi va korrupsiya xavfini pasaytiradi.

Jadval. O'zbekiston soliq tizimida Yagona portalda joriy etilgan interaktiv xizmatlar RO'YXATI⁴

T/r	Xizmat nomi	Foydalanuvchilari
1.	Hisoblangan ish haqi summolari to'g'risida ma'lumot	Jismoniy shaxslarga ko'rsatiladi
2.	Soliqlar va yig'implardan soliq qarzi mavjud yoki mavjud emasligi to'g'risida ma'lumotnoma berish	Barcha shaxslarga ko'rsatiladi
3.	O'z o'zini band qilgan shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish	Barcha shaxslarga ko'rsatiladi
4.	Elektron raqamli imzo tarixi	Barcha shaxslarga ko'rsatiladi
5.	Jismoniy shaxslar uchun elektron raqamli imzo olish	Barcha shaxslarga ko'rsatiladi
6.	Yuridik shaxslarning bank va g'aznachilik rekvizitlari to'g'risidagi ma'lumotlarini olish	Barcha shaxslarga ko'rsatiladi
7.	Soliq organlarining yagona g'azna hisob raqamlari rekvizitlari	Barcha shaxslarga ko'rsatiladi
8.	Ko'chmas mulk ijara shartnomalarini soliq organlarida hisobga qo'yish	Jismoniy shaxslarga ko'rsatiladi
9.	Soliq organidan ro'yxatdan o'tkazilgan amaldagi ijara shartnomani olish	Barcha shaxslarga ko'rsatiladi
10.	Ortiqcha to'langan soliq va boshqa majburiy to'lov summolari	Yuridik shaxslarga ko'rsatiladi
11.	O'zbekiston Respublikasi rezidenti sertifikatini olish	Barcha shaxslarga ko'rsatiladi

1 <https://www.gazeta.uz/oz/2024/09/19/e-governments/>

2 <https://lex.uz/docs/-6600413>

3 <https://lex.uz/docs/-5030957>

4 <https://gov.uz/oz/soliq/pages/interaktiv-xizmatlar>



T/r	Xizmat nomi	Foydalanuvchilari
12.	Yuridik shaxslarning shaxsiy kartochkalari	Yuridik shaxslarga ko'rsatiladi
13.	Ko'chmas mulk obyektlarini ijaraga berish shartnomasini tekshirish	Barcha shaxslarga ko'rsatiladi
14.	O'zbekiston Respublikasida tovar-xom ashyo birjalarida operatsiyalarni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslarini davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yish	Barcha shaxslarga ko'rsatiladi
15.	Ko'chmas mulkka ijara shartnomasini bekor qilish	Jismoniy shaxslarga ko'rsatiladi
16.	Jismoniy shaxslarning ortiqcha to'langan soliq summalarini qaytarishga ariza yuborish	Barcha shaxslarga ko'rsatiladi
17.	Onlayn kassa apparatlarini ro'yxatdan o'tkazish uchun ariza berish	Barcha shaxslarga ko'rsatiladi
18.	Majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tgan korxonalar	Barcha shaxslarga ko'rsatiladi
19.	Korporativ karta orqali xarid qilingan tovar va xizmatlarni shaxsiy kabinetda ro'yxatdan o'tkazish	Yuridik shaxslarga ko'rsatiladi
20.	Daromad solig'i kalkulyatori	Barcha shaxslarga ko'rsatiladi
21.	Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari haqida ma'lumot olish	Barcha shaxslarga ko'rsatiladi
22.	Yuridik shaxslar uchun soliq imtiyozlari	Barcha shaxslarga ko'rsatiladi
23.	Jismoniy shaxslarga mol-mulkni ijaraga berishdan olingan jismoniy shaxsning daromadlari to'g'risidagi dastlabki tarzdagi deklaratsiya	Jismoniy shaxslarga ko'rsatiladi
24.	Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori va bazaviy hisoblash miqdorining dinamikasi	Barcha shaxslarga ko'rsatiladi
25.	Fuqarolarning to'langan sug'urta badallari	Jismoniy shaxslarga ko'rsatiladi
26.	Ko'chmas mulk va yer solig'i	Jismoniy shaxslarga ko'rsatiladi
27.	STIR aniqlash	Jismoniy shaxslarga ko'rsatiladi
28.	Chet el yuridik shaxslarining doimiy muassasalarini hamda ularni bo'linmalarini soliq organlarida hisobga qo'yish	Yuridik shaxslarga ko'rsatiladi
29.	Soliq to'lovchilarni soliq organlarida soliq solish obyekti bo'yicha hisobga qo'yish	Jismoniy shaxslarga ko'rsatiladi

Shuningdek, OECD ekspertlarining ta'kidlashicha, soliq tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida:

- soliq yig'ish xarajatlari 20–25% gacha qisqaradi;
- soliq to'lovchilar ishonchi ortadi;
- soliq intizomi mustahkamlanadi;
- yashirin iqtisodiyot hajmi kamayadi.

O'zbekistonda esa bu jarayon Yagona interaktiv portal orqali real natijalar bermoqda. Davlat soliq qo'mitasi (DSQ) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda soliq organlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning 90 foizdan ortig'i elektron shaklga o'tkazilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–6079-sonli Farmoni bilan soliq ma'murchiligini raqamlashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Ushbu hujjat asosida "E-Soliq" va "Soliq-24" tizimlari joriy etildi. Ular orqali 6 milliondan ortiq soliq to'lovchi ro'yxatdan o'tkazildi, 2 milliondan ortiq ariza va so'rovnomalar onlayn ko'rib chiqildi, 2022-yilda 12 trillion so'mga yaqin to'lovlar elektron tarzda amalga oshirildi. BMTning 2023-yilgi "Digital Government Report" hisobotida O'zbekistonning soliq boshqaruvi raqamlashtirish tajribasi "mintaqaviy ilg'or amaliyot" sifatida e'tirof etilgan.

Portal joriy etilishi natijasida shaffoflik – soliq to'lovchi o'z hisob-kitoblarini real vaqt rejimida kuzatadi. Samaradorlik – hujjatlar elektron tarzda topshiriladi, vaqt va mablag' tejiladi. O'zaro integratsiya – DSQ, Bojxona, Adliya, Kadastr, Markaziy bank va boshqa idoralar yagona tizimda ishlaydi. Ijtimoiy ishonch – soliq to'lovchilar bilan davlat organlari o'rtasida ochiqlik kuchayadi. Tahliliy imkoniyatlar – "katta ma'lumotlar" tahlili soliq bazasini kengaytiradi.

Raqamli soliq tizimi joriy etilishida sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, ayrim tizimli muammolar ham mavjud:

1. Ma'lumotlar xavfsizligi va kiberxavf tahdidlari – soliq to'lovchilarning shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlari elektron shaklda saqlanayotgani sababli, ularni himoya qilish eng muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda.
2. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlarining yetarli emasligi – amaldagi qonunchilik xalqaro GDPR (General Data Protection Regulation) standartlariga to'liq mos emas.



3. Hududiy infratuzilma muammolari – ayrim chekka hududlarda internet tezligi pastligi sababli onlayn xizmatlardan foydalanish imkoniyati cheklangan.

4. Fuqarolarning raqamli savodxonlik darajasi pastligi – bu esa elektron xizmatlardan to'liq foydalanishga to'sqinlik qiladi.

Yuqoridagi muammolarga javoban quyidagi yechimlar taklif etiladi:

1. Texnologik himoya mexanizmlari:

- Blokcheyn asosidagi ma'lumot almashinuvi tizimini joriy etish orqali soliq ma'lumotlarini o'zgartirib bo'lmay shaklda saqlash.

- Sun'iy intellekt yordamida kiberxavfsizlik monitoringi tizimini yaratish.

- Ma'lumotlar markazlarini zaxira nusxalash va ularni davlat nazoratida saqlash mexanizmlarini kuchaytirish.

2. Huquqiy asosni mustahkamlash:

- Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga oid milliy qonunchilikni xalqaro talablarga (BMT, OECD, GDPR) moslashtirish.

- "Raqamli soliq boshqaruvi to'g'risida" maxsus qonunni ishlab chiqish.

3. Inson kapitalini rivojlantirish:

- Soliq organlari xodimlari uchun raqamli texnologiyalar bo'yicha malaka oshirish dasturlarini tashkil etish.

- Soliq to'lovchilar uchun raqamli savodxonlik kurslari va onlayn treninglar o'tkazish.

4. Hududiy raqamli markazlarni rivojlantirish:

- Qishloq joylarda internet infratuzilmasini yaxshilash.

- Interaktiv xizmatlardan foydalanish uchun maxsus "raqamli yordam markazlari" tashkil etish.

OECD mamlakatlarida, xususan Estoniya, Janubiy Koreya va Daniyada elektron hukumat tizimlari soliq yig'ish jarayonlarini avtomatlashtirishda ilg'or natijalar ko'rsatgan. Estoniya tajribasida soliq to'lovchilar 98 foiz hollarda onlayn xizmatlardan foydalanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali O'zbekiston soliq tizimini raqamli transformatsiya qilishda muhim infratuzilma elementi sifatida shakllanmoqda. Portalning joriy etilishi natijasida soliq to'lovchilarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati oshib, byurokratik to'siqlar qisqardi hamda davlat organlari o'rtasidagi axborot almashinuvi tezlashdi. Bu esa soliq ma'muriyatining shaffofligini ta'minlab, soliq intizomini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, portal orqali elektron shaklda amalga oshirilayotgan soliqqa oid operatsiyalar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Bu holat fuqarolar va tadbirkorlarning raqamli xizmatlardan foydalanish madaniyatini shakllantirayotganini anglatadi. Ayniqsa, elektron hisob-fakturalar, onlayn kassa tizimlari, QR-kod orqali nazorat mexanizmlarining joriy etilishi soliq to'lov jarayonlarini soddalashtirib, yashirin iqtisodiyot hajmini kamaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yagona portalning soliq tizimidagi o'rni nafaqat texnologik yangilanish, balki boshqaruv madaniyatidagi tub o'zgarishlarni ham aks ettiradi. Ushbu tizim davlat va fuqarolar o'rtasida ishonchli aloqa platformasini yaratib, soliq to'lovchilar uchun ochiq, tezkor va qulay muhitni ta'minlamoqda. Shu bilan birga, portal orqali ma'lumotlar bazasining yagona standartda shakllanishi soliq siyosatini tahlil qilish va prognozlash imkoniyatlarini kengaytirdi.

Tadqiqot yakunida quyidagi umumiy xulosalarga kelish mumkin:

Portal soliq boshqaruvini markazlashtirish va avtomatlashtirish orqali ma'muriy samaradorlikni oshirmoqda.

Soliq to'lovchilarning huquqiy faolligi va raqamli savodxonligi oshib bormoqda.

Raqamli xizmatlar orqali davlat byudjetiga tushumlar barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda.

Elektron xizmatlarni yanada takomillashtirish uchun sun'iy intellekt asosidagi tahliliy modellar, blokcheyn texnologiyalari va yagona identifikatsiya tizimini kengroq joriy etish lozim.

Shunday qilib, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali O'zbekiston soliq tizimini modernizatsiya qilishda nafaqat texnik yangilik, balki iqtisodiy boshqaruvning strategik yo'nalishi sifatida qaralmoqda. Portal faoliyatini yanada kengaytirish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish orqali mamlakatning fiskal siyosatini raqamli bosqichga ko'tarish imkoniyati yanada mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son Farmoni.



3. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari (2024).
4. OECD (2023). Digital Transformation in Tax Administration. Paris: OECD Publishing.
5. World Bank (2022). E-Government for Tax Efficiency: Global Trends and Best Practices.
6. United Nations (2024). E-Government Development Index Report.
7. A.Karimov (2023). Soliq tizimini raqamlashtirishda davlat portallarining o'rni. Iqtisodiyot va innovatsiya jurnali.
8. www.soliq.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining rasmiy sayti, soliq tizimi, elektron xizmatlar va raqamlashtirish bo'yicha ma'lumotlar.
9. www.lex.uz – O'zbekiston huquqiy axborot portali, soliq qonunlari, farmonlar va rasmiy hujjatlar e'lon qilinadi.
10. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining sayti, soliq yig'implari va iqtisodiy ko'rsatkichlar haqidagi statistik ma'lumotlar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>